

**QORAQALPOG'ISTON  
RESPUBLIKASI  
VAZIRLAR KENGASHINING  
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN  
RESPUBLIKASI  
MINISTRLER KENESININ  
QARARI**

2023 - yil 17 - noyabr

408-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi  
Vazirlar Kengashi

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Qo'ng'iro't tumani "Hokim-ota" MFY  
hududidan doimiy foydalanish huquqi asosida yer maydoni ajratish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 3-moddasi, "Yer to'g'risida"gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunining 4-moddasi va "Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi to'g'risida"gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunining 35-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi "Yer uchastkalarinijamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi 543-son qaroriga muvofiq, Qo'ng'iro't tumani hokimligining 2023-yil 11-oktabrdagi 02-4445-son buyurtma xatini inobatga olib, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi **qaror qiladi:**

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Qurilish vazirligi va vakolatli tashkilotlarning ijobiy xulosalari hamda kelishuvlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qo'ng'iro't tumani hokimligi zaxira yer fondida turgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlardan "Hokim-ota" MFY hududidan mahalla fuqarolar yig'ini ma'muriy binosi qurilishi uchun 0.04 gektar yer maydoni ilovaga muvofiq Qo'ng'iro't tumani hokimligiga doimiy foydalanish huquqi asosida o'rnatilgan tartibda ajratib berilsin.

3. Qo'ng'iro't tumani hokimligi (B.Madaminov) belgilangan tartibda:

ajratilgan yer maydonlariga qurilish loyiha hujjatlarini rasmiylashtirish;

ajratilgan yer maydonlarida qurilish ishlarini tegishli vakolatli tashkilotlar tomonidan berilgan loyihalar va texnik shartlarga amal qilgan holda amalga oshirish;

ajratilgan yer uchastkalarida qurilish ishlarini davlat va jamoat ehtiyoji uchun doimiy foydalanishga berilayotgan yer uchastkasiga bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin boshlash choralari ko'rsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi (S.Urunboyev) mazkur qarorga muvofiq yer fondiga o‘rnatilgan tartibda tegishli o‘zgartirishlar kiritsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o‘rinbosari Sh.Dauletiyarov zimmasiga yuklansin.

**Qoraqalpog‘iston  
Respublikasi Vazirlar  
Kengashi Raisi**




**F. Ermanov**

Qoraqalpog'iston Respublikasi  
Vazirlar Kengashining  
2023-yil 17-noyabrda  
408-13-0-Q/23-son qaroriga  
1-ilova

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qo'ng'iro't tumani hokimligiga  
Hokim-ota mahalla fuqarolar yig'ini ma'muriy binosi qurilishi uchun tanlangan yer uchastkasining

T A R X I: M-6 1:1000



Yer uchastkasi haqida qisqacha ma'lumotlar: Yer uchastkasi Aholi punktida joylashgan bo'lib, sharq tarafi elektr tarmog'i 15m, shimol tarafi noturar imorat, janub va g'arb taraflari ochiq maydon.

WGS-84 Koordinatasi

1. 43°3'55,92"C 58°50'44,28"B

2. 43°3'55,571"C 58°50'43,526"B

3. 43°3'56,133"C 58°50'43,084"B

4. 43°3'56,456"C 58°50'43,85"B

Tuman markazidan 2,29 km radius masofada

Yeruchastkasi maydoni (ga): 0,04 ga

Yer fondi: Aholi punkti yertlari

Ta'qiqlanganligi: Yo'q

Qnysi maqsadda foydalansa bo'ladi: *Hokim-ota mahalla fuqarolar yig'ini ma'muriy binosi uchun*

Yer turi: Qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar

Ball boniteti: Baholanmagan

Shartli belgilar

 Ajratilgan yer chegarasi